

**2024-yil davomida “O‘zRTXB” AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**

HISOBOT

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	“O‘zRTXB” AJda 2025-yil uchun monopoliyaga qarshi koplans tizimi bo‘yicha ishlab chiqildi hamda tasdiqlandi.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	“O‘zRTXB” AJ Boshqaruv yig‘ilishining 2024-yil 10-dekabr kunidagi 158-sonli bayoni orqali Birjaning ichki hujjatlari loyihalari bilan Komplayens-nazorat va axborot xavfsizligi bosh boshqarmasi bilan kelishish tartibi joriy etildi.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	“O‘zRTXB” AJning rasmiy veb-saytining korporativ boshqaruv bo‘limida “Monopoliyaga qarshi komplayens” nomli sahifa yaratildi. Ushbu sahifa orqali quyidagi ma'lumotlar bilan tanishish mumkin: - Monopoliyaga qarshi komplayensga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar - Monopoliyaga qarshi komplayensga oid idoraviy hujjatlar - Amalga oshirilgan ishlar - Monopoliyaga qarshi komplayensga oid murojaatlarni yuborish Shuningdek, birjada murojaatlarni qabul qilish uchun Call-markaz (71 207-00-33) faoliyat yuritadi.

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Joriy yilda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari aniqlanmadi.
5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	Joriy yilda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari aniqlanmadi.
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	"O'zRTXB" AJ Boshqaruv yig'ilishining 2024-yil 10-dekabr kunidagi 158-sonli bayoni bilan "Monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va baholash metodikasi" va "O'zRTXB" AJning tovar bozoridagi monopoliyaga qarshi kompayens tizimi bo'yicha xavflar ro'yxati" tasdiqlandi.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Birja faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan normalar va qoidalar doimiy ravishda tahlil qilinib kelinmoqda. Xususan, joriy yil "O'zRTXB" AJda qabul qilingan 8 dan ortiq lokal hujjatlar qoramalari o'rganib chiqilib, raqobatga zid bo'lgan normalar aniqlanmadi.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	O'zbekiston Respublikasining raqobat to'g'risidagi qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgarishlar doimiy ravishda o'rganilib, birjaning ichki me'yoriy hujjatlari muvofiqlashtirilib borilmoqda.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	2024-yilning 26-sentabr kuni "O'zRTXB" AJ Markaziy apparati binosida birja xodimlari uchun Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
		<p>mohiyati va ijrosi yuzasidan o'quv-amaliy seminar tashkil etildi.</p> <p>Shubilan birga, joriy yilning oktyar-noyabr oylarida Birjaning markaziy apparati xodimlari tomonidan, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan birgalikda, birjaning viloyat hududiy filiallaridagi birja a'zolari va xodimlari uchun o'quv amaliy seminarlar tashkil etildi.</p>
10	<p>Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.</p>	<p>2024-yilning 16-dekabr kuni Komplayens-nazorat va axborot xavfsizligi Bosh boshqarmasi tomonidan Birja xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari bo'yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkazildi.</p>
11	<p>Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.</p>	<p>Monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha o'tkazilgan o'quv-amaliy seminarlar davomida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar qilingan.</p>